

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Xalilov Muhammadsodiq Abduljalil o‘g‘lining**

" Tasvirli ma'lumotlarni qayta ishlashda rangli tasvirni kulrang tasvirga o'tkazish  
algoritmini tadqiq etish " **MAVZUSIDAGI**

**5130200 – Amaliy matematika va informatika  
yo'nalishi bo'yicha  
bakalavr  
darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Namangan – 2019

# MUNDARIJA

## KIRISH

## ASOSIY QISM

### 1-BOB. KOMPYUTER GRAFIKASI HAQIDA BOSHLANG'ICH MA'LUMOTLAR

- 1.1 Kompyuter grafikasi va tasvirlarga qayta ishlov berish elementlari. 6
- 1.2 Tasvirli axborotlarga ishlov berishda kolorometriya usullari ..... 8
- 1.3 Raqamli tasvirni ifodalovchi fazo va uning elementlari ..... 11

### 2-BOB. TASVIRLARNI QAYTA ISHLASH AMALIYOTI

- 2.1 Tasvirlarning sinflari va o'zlashtirish turlari. Tasvirlarni qayta ishlash jarayonlari..... 15
- 2.2 Tasvirlarni qayta ishlash bosqichlari va kompyuter grafikasidagi ifodasi ..... 29
- 2.3 Raqamli tasvirni kompyuterga kiritish vositalari va rangli tasvirni kulrang tasvirga o'tkazish algoritmlari ..... 34
- 2.4 Dasturchi hamda foydalanuvchi uchun ko'rsatmalar ..... 40

**XULOSA** ..... 61

**Foydalanilgan adabiyotlar** ..... 62

**ILOVA** ..... 66

## KIRISH

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyevning 2019 yil 24 may kuni Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universitetida bir guruh olimlar va talabalar bilan suhbatida barcha ziyolilarda katta qiziqish uygʻotdi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimiz oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilari zimmasiga qator masʼuliyatli vazifalarni yukladi. Yaʼni, talabalarning puxta bilim olishi, amaliyot sirlarini mukammal oʻrganishi uchun zarur sharoitlar yaratish, shu asnoda etuk kadrlar tayyorlash, yoshlarni chinakam vatanparvar qilib kamolga etkazish davr taqozosidir.

Shu asnoda biz kompyuter grafikasi va tasvirlarga ishlov berish fanlari sohasida olib borilayotgan ishlar, informatsion texnologiya sohasida muhim oʻrin egallab turgan yoʻnalishlardan ekanligi, bu talaba yoʻshlarda hozirda juda katta qiziqish uygʻotayotganligini bilishimiz kerak. Ushbu yoʻnalishning tadbqiqiy koʻlami keng boʻlib, ilmiy - texnik, xarbiy va ijtimoiy maqsadlarda tasvirli axborotlarga raqamli ishlov berishda katta rol oʻynamoqda. Masalan, osmon jismlarini oʻrganishda, bank binolariga kirishda hamda turli kuzatuv obʻektlaridagi kuzatuv texnik tizimning ichki ish jarayonida tasvirlarni sifatini oshirish, kerakli axborot maydonini qirqib olish, tasvirdagi buzilgan axborot qismini tiklash, turli xil xalaqitlardan tozalash va h.k. Bunday imkoniyatdan mutaxassislar va ixtiyoriy soha odamlari unumli foydalanishmoqda. SHu bilan birga ilmiy – texnik revolyusiya video va kompyuter texnikasida tezkor rivojlanishni vujudga keltirdi. Tasvirlarni qayta ishlashga multimediali apparat va dasturiy vositalar ulkan hissa qoʻshmoqda. Tasvirlarni qayta ishlash shu darajaga etdiki, xozirda 3D vizual tasvirlarga ham raqamli ishlov berish asta – sekin taraqqiy etib bormoqda.

Bir qancha vaqtlardan beri tasvirlarni qayta ishlash va kompyuter grafikasi sohalari ikkita turli sohalar sifatida qaralib kelinmoqda. Ikki sohada ham etarlicha bilimlar toʻplangan boʻlib, xozirgi vaqtda bir muncha murakkab masalalar ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Kompyuter grafikasi fotorealistikaga intilmoqda, yaʼni olingan tasvirni uch oʻlchovli tasvir holatida ifodalashdan iborat. Albatta

olinayotgan tasvir turli vositalar orqali (skaner, veb kamera, foto kamera, video kamera va h.k.) kompyuterga xotirasiga kiritiladi. SHunday vazifani bildiradiki, tasvirlarni qayta ishlash masalasi, kompyuter grafikasini qaytarish amalini bajaradi.

Bu ikki sohada o'ziga xos umumiylik mavjud bo'lib, ikki o'lchovli fazoda uch o'lchovli fazo ifodasini buzmaganda holda ishlashni ta'minlaydi. Faqat bu erda yorug'lik va ob'ektni o'zaro bog'liqligini tekislikda uch o'lchovli ifodasini tushunib olish zarur. Bu esa tasvirlarni qayta ishlash masalasi va kompyuter grafikasi vazifalarini umumiylik mavjud nuqtalarini bildiradi. Ammo ikki soha ham o'z maqsad va vazifalari jihatidan keskin bir - biridan farq qiladi.

Bitiruv ma'lakaviy ish uchta qism, yakuniy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat bo'lib, birinchi qismda rangli tasvirlarga ishlov berish haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Ikkinchi qismda rangli tasvirlarni kulrang tasvirga o'tkazish usuli, algoritmi va amaliy natijalar haqida ishlar taqdim etilgan. Uchinchi qismda esa texnik tizimlardan foydalanishdagi amal qilinishi muhim bo'lgan xayot faoliyat xavfsizligi ko'rsatmalari yoritilgan.

**Mazkur bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi** kompyuter grafikasi orqali tasvirlarni qayta ishlashda rangli tasvirni kulrang tasvirga o'tkazish algoritmini yaratish, tasvirlarga ishlov berishning mahsus bosqichlari va standart usularini amaliyotga tadbiq etish.

**Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi**, tasvirlarga raqamli ishlov berishni qulaylashtirish uchun rangli tasvirni kulrang tasvirga o'tkazish usulining algoritmi va dasturiy ta'minotini ishlab chiqishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi masalalar bajariladi:

- Tasvirli ma'lumotlarni qayta ishlov berishga tayyorlash;
- Tasvirni ifodalovchi rang modellari (RGB, CMY, HIS va h.k.) tahlil qilish va modellardagi ranglarni normallashtirish;
- Yorug'lik diapazonida o'rta qiymatni aniqlash;
- Gistogrammani har ikki tomonidan og'irlik markazlarini hisoblash;

- Nazariy algoritmini dasturiy ta'minotini ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti:** Barcha turdagi tasvirlar.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti:** Turli ma'lumotlarni tasvirga o'girish jarayonlari.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati:** Yangi dasturiy ta'minot ishlab chiqish, tasvirlar ustida amaliy ishlar olib borish.

**Bitiruv malakaviy ishning hajmi va tuzilishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi 72 betdan iborat bo'lib, kirish qismi, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, bitiruv malakaviy ish 7 ta jadval va 36 ta grafik tasvirlardan tashkil topgan.

## ASOSIY QISM

### I –BOB. KOMPYUTER GRAFIKASI HAQIDA BOSHLANG'ICH MA'LUMOT

#### 1.1. Kompyuter grafikasi va tasvirlarga qayta ishlov berish elementlari

Tasvirlarga ishlov berish va tahlil etish inson faoliyatining tasvirlarga aloqador bo'lgan barcha sohalarida qo'llaniladi. Ko'pchilik mutaxassis va olimlarning fikriga ko'ra tasvirlarga ishlov berish usullari rivojlanishi fan va texnikaning yorqin kelajakka ega bo'lgan yangi sohasi tug'ilishiga olib keldi.

Keyingi o'n yil ichida tasvirlarga ishlov berishning qo'llanilish sohasi sezilarli darajada taraqqiy etdi [12-16]. Tasvirlarga ishlov berishda avvalo tasvirning rang xususiyatlarini o'rganib chiqish zarur bo'ladi.

Rangni xis qilish tuyg'usining tabiati ranglarga sezgir retseptorlarning umumiy ta'sirlanishiga va uch turdagi retseptorlarning har birining ta'sirlanishlarining o'zaro nisbatlariga ham bog'liq bo'ladi. Umumiy ta'sirlanish ravshanlikni, uning ulushlarining nisbati esa ranglilikni aniqlab beradi.


Nurlanish barcha retseptorlarga bir xilda ta'sir qilganida (ta'sir qilish kuchi birligi – “oq rangda qatnashish ulushi”) uning rangi oq, kulrang yoki qora sifatida qabul qilinadi. Oq, kulrang va qora ranglari *axromatik* ranglar deb ataladi. Bu ranglar bir-birlaridan sifat jihatidan farq qilmaydilar. Oxromatik ranglarni ko'z orqali ko'rish paytida ular tug'diradigan ko'rish tuyg'ularidagi farqlar faqatgina retseptorlarga ko'rsatilgan ta'sir darajasigagina bog'liq bo'ladi. SHuning uchun ham axromatik ranglar faqatgina bitta psixologik kattalik – ravshanlik bilangina berilishi mumkin[5-7].

Agar turli tipdagi retseptorlar bir xil ta'sirlanmagan bo'lsa, u holda xromatik rang tuyg'usi hosil bo'ladi. Uni ifodalash uchun endi ikki kattalik – ravshanlik va ranglilik kattaliklari kerak bo'ladi. Ranglilik sifatida aniqlanuvchi ko'rish tuyg'usining sifatiy xususiyati ikki o'lchamlikdir: u to'yinganlik va rang tusining yig'indisi orqali aniqlanadi.

Barcha retseptorlar deyarli bir xilda ta'sirlanilgan hollarda rang axromatiklikka yaqin bo'ladi: rangning sifatini deyarli ifodalab bo'lmaydi. Bularga jumladan ko'kka moyil oq, ko'kish kulrang kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Ikki turdagi retseptorlardan birining ta'sirlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, rangning sifati, uning xromatikligi shu qadar ko'proq ifodalanadi. Masalan, faqatgina qizil rangga sezuvchan bo'lgan retseptorlar qo'zg'atilganda biz sof qizil rangni ko'ramiz.

Xromatik rangning axromatiklikdan uzoqlik darajasi rangning to'yinganligi deb ataladi.

Ravshanlik va to'yinganlik – rangni to'la aniqlab berishga etarli bo'lmagan xususiyatlardir. “To'yingan (to'q) qizil” yoki “Kamroq to'yingan (och) yashil” deyilganda rangning tusi yodga olinadi. Bu rangning kundalik hayotda predmetlarning rangi to'g'risida gapirilganda nazarda tutiladigan xususiyatidir. Ushbu tushunchaning o'z-o'zidan tushunarligiga qaramasdan “rang tus” terminining umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Ulardan biri quyidagi shaklda beriladi: rang tusi – bu rangning ma'lum bo'lgan va “ko'k, yashil, sariq” kabi so'zlar bilan ifodalanuvchi ranglarga yaqinligini belgilab beruvchi xususiyatidir.



*1.1 – rasm. “qizil, yashil, ko'k” ranglar ifodasi.*

Rang tusi eng ko'p ta'sirlanuvchi retseptorlar bilan belgilanadi. Agar rang tuyg'usini hosil bo'lishida ikki turdagi retseptorlarning xissasi bir xilda bo'lib, uchinchisini ozroq bo'lsa, u holda oraliq tusdagi rang hosil bo'ladi. Masalan,

yashil va ko'k rangga sezgir bo'lgan qatlamlarning bir xilda ta'sirlanishi natijasida havorang to'g'risidagi tuyg'u hosil bo'ladi [16-36].

Eng kam darajada qo'zg'alish olgan retseptorlarning ta'sirlanishi to'yinganlikni belgilab beradi.

Qizil va yashil ranglarga sezgir bo'lgan kolbochkalarning teng ta'sirlanishlari natijasida sariq rang tuyg'usi hosil bo'ladi. Agar qizil rangga sezgir bo'lgan kolbochkalarning qo'zg'alishlarini orttirilsa, rang tusi to'q sariq rang tomon siljiydi. Agar ko'k rangga sezgir bo'lgan kolbochkalar ham qo'zg'atilsa, u holda rangning to'yinganligi pasayadi.

Berilgan rangning tusi, to'yinganligi va ravshanligi faqatgina nurlanishning spektral tarkibigagina bog'liq bo'lmasdan, balki kuzatish sharoitlari, kuzatuvchining holati, fon rangi kabilarga ham bog'liq bo'ladi. SHuning uchun ham bu erda ko'rib o'tilgan xususiyatlarni sub'ektiv xususiyatlar deb ataladi.

## **1.2. Tasvirli axborotlarga ishlov berishda kolorometriya usullari**

Ixtiyoriy aniq fanlarning asosida o'lchashlar yotadi, chunki har qanday hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib berish davomida eng avvalo ularning miqdoriy nisbatlarini ko'rib chiqiladi. Har qanday xulosani amaliy jihatdan tekshirib ko'rish o'lchashlarni amalga oshirishni talab qiladi. Ranglarni o'lchash to'g'risidagi fan *rang metrologiyasi yoki kalorimetriya* deb ataladi.

Kalorimetriyada ranglarni miqdoriy jihatdan ifodalashning ikki usulidan foydalaniladi. 1) Ularning koordinatalarini va shu orqali ularni nafaqat ifodalash, balki qayta tiklashga ham imkon beradigan qat'iy sonli ko'rinishdagi xususiyatlarini aniqlash. Ranglarni o'lchash tizimlari kalorimetrik tizimlar deb ataladi. 2) Namunaning ma'lum bir etalon ranglar to'plamidan berilgan rangga mosini topish. Namunalar majmui *tasniqlash tizimi* deb ataladigan tizimni tashkil qiladi.



**Grasman qonunlari.** Agar ko‘zga nurlanishlar aralashmasi ta’sir qilayotgan bo‘lsa, u holda retseptorlarning har birining ta’sirlanishlari o‘zaro qo‘shiladi. Bo‘yalgan yorug‘lik dastalarini aralashtirish yangi rangdagi yorug‘lik dastasini beradi. Berilgan rangni olishni shu rangni *sintez qilish* deyiladi. Ranglarni sintez qilish qonunlarini G. Grasman ifodalab bergan edi (1853 y.).

*Grasmanning birinchi qonuni (uch o‘lchamlilik).* Har qanday rangni o‘zaro chiziqli bog‘liq bo‘lmagan uchta rang orqali bir qiymatli tarzda aniqlash mumkin.

Chiziqli bog‘liq bo‘lmashlikning ma’nosi shundaki, ushbu ranglardan birortasini ham qolgan ikki ranglarni o‘zaro qo‘shish orqali hosil qilib bo‘lmaydi. Ushbu qonun ranglarni rang tenglamalari yordamida ifodalash mumkin ekanligini tasdiqlaydi.

*Grasmanning ikkinchi qonuni (uzluksizlik).* Nurlanishlarning uzluksiz tarzda o‘zgarishlarida rang ham uzluksiz tarzda o‘zgaradi.

O‘ziga nihoyatda yaqin bo‘lgan birorta rangni ham tanlab olish mumkin bo‘lmagan rang mavjud emas.

*Grasmanning uchinchi qonuni (additivlik).* Nurlanishlar aralashmasining rangi spektral tarkibga emas, faqatgina ularning ranglarigagina bog‘liqdir.

Ushbu qonundan ranglar to‘g‘risidagi nazariya uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan narsa – rang tenglamalarining additivligi kelib chiqadi: agar bir nechta rang tenglamalarining ranglari rang tenglamalari orqali ifodalangan bo‘lsa, u holda rang ana shu tenglamalarning yig‘indisi orqali ifodalanadi.

**Kolorimetrik tizimlar.** Har qanday o‘lchashlarning natijalari bir qiymatli va qiyoslana oladigan bo‘lishi kerak. Mana shu metrologiyaning eng asosiy talablaridan biridir. Ushbu talabning bajarilishi uchun o‘lchash shartlari doimiy, me’yor sifatida qabul qilingan bo‘lishi kerak. Ranglarni o‘lchashning me’yor sifatida qabul qilingan shartlari jamlanmasi *kolorimetrik tizimni* tashkil qiladi. Asosiy ranglar turi, ravshanlik darajasi, asosiy ranglar miqdori birliklari, fotometrik maydon o‘lchamlari kabilarni me’yorlashtiriladi – ushbu omillarning

barchasi o'lganayotgan rangning rang koordinatalaridagi qiymatlarini aniqlab beradi.

Har qanday kalorimetrik tizimning asosida uchta asosiy ranglarning rangliliklari yotadi, chunki o'lgash natijalari ayniqsa o'shalarga ko'proq darajada bog'liqdir. Asosiy ranglar Grasmanning birinchi qonuniga mos keladigan holda o'zaro chiziqli bog'liq bo'lmaydigan qilib tanlanadi. Ushbu talabga ko'k, yashil va qizil rangdagi nurlanishlar javob beradi. Uchta o'zaro chiziqli bog'liq bo'lmaydigan ranglar to'plami triada deb ataladi. Ranglarni o'lgashlar uchun turli xil triadalardan foydalanish mumkin: asosiy ranglar turli xil spektral oraliqlarni va spektr sohalarini egallashlari mumkin. Biroq amalda ularning soni chegaralangan. Bu shu bilan izohlanadiki, kalorimetriya asosiy ranglarga o'zaro chiziqli bog'lanishda bo'lmaslikdan tashqari boshqa shartlarni ham qo'yadi. Ular orasida asosiy ranglarni oson va aniq hosil qila olish hamda hosil qilinayotgan ranglarning yuqori to'yinganlikda bo'lishi kabilar bo'lishi mumkin.

YUqorida aytib o'tilganlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, buyumning ravshanlik darajasi bilan ko'zning kontrastli sezuvchanligi bog'liq bo'ladi. SHuning uchun ham bir xil ravshanlikda farqlanib turadigan turlicha rangga ega ikki soha ko'zning sezuvchanligi pasayadigan boshqacha ravshanlikda farqlana olmasligi mumkin. SHunga ko'ra kalorimetrik o'lgashlar shartlarini shunday me'yorlashtirish maqsadga muvofiqki, maydonning ravshanlik darajasi ko'zning sezuvchanligiga nisbatan eng maqbul bo'lsin.  $\text{уровень яркости поля был оптимальным в отношении чувствительности глаза.}$


Ana shu narsa fotometrik maydonning o'lgamlariga ham tegishlidir. Dastlab (1931 y.) uning o'lgami  $2^\circ$  qilib o'rnatilgan edi, keyinchalik (1964 y.) u bilan birga boshqa kengroq darajadagi maydon -  $10^\circ$  o'lgamli maydon ham qabul qilindi.

### 1.3. Raqamli tasvirni ifodalovchi fazo va uning elementlari

Tasvirni ifodalovchi fazo yorug'lik energiyasining tekislikda tarqalishi natijasida hosil bo'ladi. Matematik tilda aytiladigan bo'lsa, yorug'lik energiyasining tarqalish fazosi deyish mumkin, quyida keltirilgan uzluksiz funksiya orqali ifodalanadi:

$$E(x_1, x_2) = E(x)$$

Kompyuter qayta ishlayotgan vaqtda tasvirni emas, balki, diskret massivdan iborat raqamlarni qayta ishlaydi. Bunday hollarda tasvirni ikki o'lchovli nuqtalari deb qaraladi. Nuqtalarni  $2-D$  to'rini piksel deb yuritiladi (*pixel yoki pel*). Bu nom picture element (tasvir elementi) tushunchasini qisqartirib olish natijasida hosil qilingan. Piksel yorug'lik energiyasini to'rdagi mos o'rnini ko'rsatib beradi. Piksellar to'g'ri burchakli to'rda joylashadi. Piksellarni bunday holatini umumiy kelishuvga asosan matritsa shaklida joylashuvi deb yuritiladi. Dastlab qatorlar indeksini  $m$  deb, ustunlarni  $n$  deb belgilaylik va quyidagi rasmda keltirilgan:




1.3.1- rasm. Kompyuter ekranidagi piksel to'ri.

Agar raqamli tasvirda piksellar  $M \times N$  da bo'lsa, u holda matritsa o'lchami ham  $M \times N$  bo'ladi. Ixtiyoriy pikselni koordinatasi ustun bo'yicha 0 dan  $N$  gacha, qatorlarda esa 0 dan  $M$  gacha oraliqda bo'ladi. Matritsaning mos holda vertikal o'qi  $y$  bilan gorizantal o'qi esa  $x$  bilan ifodalangan bo'lib,  $y$  o'q yuqoridan

quyiga tomon o'sadi,  $x$  o'q esa odatdagi holatda chapdan o'ngga tomon o'sadi. SHu tariqa pisellar ikki o'lchovli matritsa yoki fazoda joylashadi.

Piksel tasvirni shunchaki nuqtasi bo'libgina emas, balki, to'g'ri burchak bo'ylab xarakat tezligini, yorug'lik rangini, to'rni elementar yacheykasini anglatadi. Piksel to'rda joylashgan o'rnida yorug'lik energiyasini o'rtacha qiymatini ham beradi. Odatta tasvirlarda ob'ektlar turli yorug'lik energiyasiga ega piksellardan tashkil topgan bo'ladi. Ko'p hollarda tasvirdagi piksellarni turli tuman yorug'lik energiyalarida bo'lishi tasvirni tabiiyo ifodalashga xizmat qiladi. Biroq, unga ishlov berishga xar doim ham ijobiy xizmat ko'rsatmaydi. CHunki, tasvirdagi ranglar kompyuterda  $2^{32}$  yorug'lik energiyasida ifodalanadi. Bu esa tasvirdagi ob'ektni turli xil halaqitlardan tozalashga qiyinchiliklar tug'diradi. Bu haqida ikkinchi bobda batafsil keltirib o'tamiz. SHu o'rinda qancha piksel miqdori etarli? – degan savol tug'iladi. Bu savolga umumiy javob xali topilmagan. Sabab, ko'rish tizimi ma'lum bir masofadan kuzatayotgan piksel razmeri shunday kichik bo'lishi kerak-ki, tasvirni yaxshi tushunish imkoniyatini bersin. YAna shunday aniq topshiriqlar pikselga qo'yiladi-ki, piksel imkoniyat darajasida kichik bo'lishi kerak-ki, ixtiyoriy o'rganilayotgan ob'ektni mayda zarra qismlarini ham yoritib bersin. Amaliy masalalarda pikselni o'lchami etarli darajada kichikligi katta rol o'ynaydi. Xozirgi texnik apparatlarni rivojlanishi ham shunga qarab, rivojlanmoqda va ularni narxi hamda imkoniyati ham "1 dyuym"da piksellarning zichligiga qarab baholanadi. Amaliy masalalarda turli datchiklar orqali piksel miqdori yoki sonini aniqlash talab qiladi. Xatoki, datchik matritsasining imkoniyati  $1000 \times 1000$  elementga ega fazoni tashkil qilganda ham  $10^{-3}$ ni tashkil qiladi. Albatta bu hol yaxshi emas, chunki, uzunlikni o'lchash, elektrik bosimni yoki chastotani, ya'ni boshqa  $10^{-6}$ dan yuqori imkoniyatdagi kuchlanishlar bilan qiyoslashda noqulayliklar tug'diradi. Biroq, shunday usullar bor-ki, ular alohida bitta nuqtani olib qayta ishlash imkoniyatini beradi. CHunki, bunday yondashuv  $1000 \times 1000$  tasvirdagi bir million pikseldan bemalol foydalanish ta'minlaydi. Bu esa tasvirni uzatayotgan signallarni dinamik boshqaruvni ham ta'minlaydi.


Raqamli tasvirlar uchun to'g'ri burchakli to'rlar sodda geometriya talab qilishi bilan qulaydir. Aks holda piksellarni boshqacha geometrik joylashtirish va elementar yacheekani geometrik shaklini ham tanlash kerak bo'ladi. Agar 2-D o'lchovli fazoda klassik mavjud konfiguratsiyalarni qarab chiqadigan bo'lsak, uchburchakli, to'rt burchakli va kristal yacheekali to'rlarni uchratamiz ham quyidagi rasmda keltirilgan:



1.3.2 – rasm. 2-D da uchta doimiy to‘r:  $a$  – uchburchakli to‘r,  $b$  – kvadrat to‘r,  $v$  – geksoqonal to‘r.


Yuqorida keltirilgan to'rlarga asoslangan yacheekalarda piksellarni joylashishi orqali tasvirlar ekranda hosil qilinadi. Biroq, bulardan tasvirlarga raqamli ishlov berish uchun eng qulay va keng foydalaniladiganni 1.3.2 (b) – da keltirilgan to'rdir.

Tasvirlarga raqam ishlov berish uchun kvadrat to'rlarga mos maskalar mavjud bo'lib, u quyidagi 1.3.3 - rasmda keltirilgan:



1.3.3 – rasm. Kvadrat to‘rlar uchun maskalar va ob’ektning ma’lum bir qismi.

Xozirgi vaqtda  $2-D$  o'lchovli fazoda  $3-D$  o'lchovli tasvirlarga raqamli ishlov berish rivojlanib bormoqda. Uch o'lchovli tasvirdagi piksel "voksel" (*voxel*) deb yuritiladi – *volume element* (xajm elementi) so'zining qisqartma shaklidir. To'g'ri burchakli to'rdagi har bir *voxel* to'g'ri burchakli parallelepipedni o'rtacha yorug'lik darajasini beradi.



1.3.4 – rasm.  $3-D$  o'lchovli fazodagi voksel.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin – ki, dekart to'rida ifodalanayotgan giperkubik pikselning raqamli axborotini ta'minlaydi. Geometrik o'lchovni mos geometrik fazoga o'tib ishlash kompyuter grafikasida tasvirlarga raqamli ishlov berishda katta qulayliklar yaratadi.

## II. ASOSIY QISM

### TASVIRLI MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHDA RANGLI TASVIRNI KULRANG TASVIRGA O'TKAZISH BOSQICHLARI VA ALGORITMINI TADQIQ ETISH

#### 2.1. Tasvirlarning sinflari va o'zlashtirish turlari. Tasvirlarni qayta ishlash jarayonlari.

Tasvirlarni shakllantirish usullari. Tasvirlar shakllantirish usullaridan bog'liq holda 3 turga bo'linadi:

1) rastrli tasvirlar; 2) vektorli tasvirlar; 3) fraktal tasvirlar.

Ular bir-birlaridan tasvir ko'rinishdagi axborotlarni hosil qilish va qayta ishlash texnologiyalari bilan farq qiladi. Rastrli tasvir asosan elektron va poligraf nashriyotlarda qo'llaniladi (2.1-rasm). Rastrli tasvir ikki o'lchovli massiv (matritsa) ko'rinishdagi nuqtalar to'plamidan iborat bo'lib, ular piksellar deb ataladi. Rastrli tasvirning eng kichik peksildan iborat. Uning atributlari boshqa piksellarning atributlaridan bog'liq emas. Kompyuterda qo'llaniladigan operatsion tizimlarning imkonitiyaga ko'ra, 480x640, 800x600, 1024x768 va undan ko'proq pikselga ega bo'lgan tasvirlar joylashuvi mumkin. Tasvirning o'lchamiga ko'ra uning imkoniyati ham oshib boradi. Ekraning imkoniyati parametrik bo'lib, bir dyuymdagi nuqtalar soni bilan

belgilanadi. Rastrli tasvirlar juda kam hollardagina Kompyuter dasturlaridan

foydalanib ishlab chiqiladi. Bu maqsadda professional rassom chizgan rasm yoki fotografiya texnik vositalar yordamida kompyuterga kiritiladi.



2.1-rasm.Rastirli tasvirlar

Oxirgi paytda rastirli tasvirlarni Kompyuterga kiritish uchun raqamli foto va videokameralardan foydalanilmoqda. SHu sababli rastr grafikasini asosiy maqsadi tasvirni yaratish emas, balki mavjud tasvirni qayta ishlashdir.

Rastr tasvirlar quyidagi tiplarga bo'linadi: binar, kulrang, palitrali, to'liq kulrang. Bunda tasvirning elementlari faqat ikki qiymatni (0 yoki 1) qabul qilish mumkin. Bu tasvirlar turlicha paydo bo'lishi mumkin. Ammo ko'p hollarda kulrang, palitrali va turli rangli tasvirlarni o'zgarmas yoki adektiv chegaraviy son bilan binar tasvirga almashtirish natijasida paydo bo'ladi. Binar tasvirlarni saqlash uchun juda ham katta joy talab qilinmaydi. Ularning har bir elementi uchun 1 bit joy kerak bo'ladi. Kulrang tasvirni elementlari ma'lum bir rang intensivligining turli xil qiymatlarini qabul qiladi. Odatda bu tasvirlarning har bir elementini saqlash uchun 8 bit ishlatiladi. Kulrang tasvirlar turli xil amaliy masalalarini hal qilishda eng ko'p qo'llaniladigan tasvirlardan biri hisoblanadi.

Palitrali tasvirlarning har bir elementiga ranglar kartasining (palitrasini) bir yacheykasidagi rang mos qo'yiladi. Palitra –bu ikki o'lchovli massiv bo'lib, uning satrlariga turli ranglar, har bir ustunlariga esa ma'lum bir rangning intensivligi joylashtiriladi.



To'liq rangli tasvirlar elementlari rangni tashkil etuvchi yorqinliklari haqidagi axborotni o'zini saqlaydi. SHu bilan u palitrani tasvirlardan farq qiladi.

Amaliy masalalar yechishda qaysi tipdagi tasvirni tanlash masalasining o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanib, tasvirdagi zarur axborotni qanchalik to'liq ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari to'liq rangli tasvirlardan foydalanish katta hajmdagi hisoblash resurslarini talab qilishini e'tiborga olish kerak.

Rastrli tasvirning ijobiy tomonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:


- universalligi (bu formada har qanday tasvirni taqdim etish mumkin);
- shakllantirishning soddaligi;
- rang jilolarini berish aniqligining yuqoriligi.

Ushbu usulda shakllantirilgan tasvirning salbiy tomonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ularning hajmining juda kattaligi;
- ularning masshtabi o'zgarganda tasvir sifatining pasayishi.

SHu sababli har bir tasvirni kodlash va saqlash uchun katta hajmdagi xotira talab etiladi. Tasvirdagi juda kichik ob'ektlarni ko'rish uchun uning masshtabini kattalashtirib bo'lmaydi. Bu rastrli tasvirlarni qayta ishlash jarayonida ba'zi bir muammolarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Vektorli tasvirlar sodda grafik ob'ektlar tuplamidan tuzilgan bo'lib, uning tipik elementiga mos keladi (2.2-rasm). Vektorli tasvirning asosiy elementi chiziq bo'lib hisoblanadi.



2.2-rasm.Vektorli tasvirlar

Kompyuter xotirasida bu chiziq juda katta joy egallamaydi, chunki xotirada chiziqni faqat parametrlari ko'rsatiladi. Unda sodda ob'ektlar murakkab ob'ektlarga birlashtiriladi. Kompyuter xotirasida vektorli tasvir chiziqlar sifatida saqlanib turishiga qaramasdan, tasvir ekranga nuqtalar sifatida chiqariladi. Tasvirni ekranga chiqarishdan oldin har bir parametрни hisoblab chiqadi. SHu sababli vektorli tasvirni hisoblanuvchi tasvir deb aytiladi.

Vektor grafikasi yordamida sodda turdagi bezash ishlarini olib borish mumkin. Vektorli tasvirning sodda elementlardan tashkil topganligi uning muhim xususiyati bo'lib xizmat qiladi. Sodda grafik elementlariga bir necha misol keltiramiz:

- koordinatasi ko'rsatilgan nuqtalar boshlanuvchi ma'lum bir burchak ostida yo'nalgan va berilgan uzunlikka ega bo'lgan chizik;
- markazi koordinatalari ko'rsatilgan nuqtada joylashuvchi, yarim o'qlarining uzunligi, chiziqning rang va qalinligi, hamda uni bo'yash rangi berilgan ellipsis;
- chap tomondagi yuqori burchagiga joylashgan nuqtaning koordinatalari, tomonlar uzunligi, chiziq qalinligi va rangi ko'rsatilgan to'g'ri to'rtburchak.

Vektorli tasvirni ko'rsatayotganda sodda elementlarning chiziqli geometrik atributlari, uning boshlang'ich va zarur o'lchamlari o'rtasidagi munosabatni, hamda chiqarish qurilmalarida (monitorlar, chop etish

qurilmasi) ruxsat berilgan xatolikni hisobga olgan holda hisoblab chiqadi. Bunday usul masshtablashtirish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi. Tasvir o'lchamini qancha ko'paytirsam ham, uning sifati o'zgarmaydi. Tasvirning o'lchamlarini juda kichiklashtirib yuborganda, sodda elementlarning chiziqlari ustma-ust tushib qolishi va xatolarni ixchamlash hisobiga u o'zgarishi (buzilishi mumkin).


Fraktal tasvirlar ham xuddi viktorli tasvirlar kabi matematik hisoblarga asoslangan. Ammo Kompyuter xotirasida hech qanday ob'ektni saqlamasligi bilan undan farq qiladi. Tasvir tenglama (yoki tenglamalar tizimi) bo'yicha quriladi, shuning uchun formulalardan boshqa hech narsani saqlash kerak emas.

«Fraktal» atamasi lotincha Fractus so'zidan olingan va u «qismlardan tuzilgan» ma'nosini anglatadi (2.3-rasm). Frantsuz matematigi Benua Mandelbrot 1975 yilda «The fractal geometry of Nature» kitobini nashr qildi va fraktal so'zi eng ko'p tarqalgan atamalardan biriga aylandi. Eng sodda fraktal ob'ekt sifatida qor uchqunlarini, yoki paporotnik bargini keltirish mumkin.

Shuning uchun ham fraktal ob'ekt chizish yoki bezash asosida emas, balki programmalashtirish asosida hosil bo'ladi.

Kompyuterda tashkil qilingan turli o'yinlarda ham fraktal grafikasidan foydalaniladi. Fraktal grafikasi Kompyuter xotirasida saqlanib turmaydi. Har bir tasvir tenglama yoki tenglamalar sistemasi asosida quriladi. Fraktal grafikadagi tenglamaning biror koeffitsientini o'zgartirish orqali butunlay boshqa tasvirni hosil qilish mumkin.

Sanab o'tilgan Kompyuter grafikasi turlarini tashkil qilish va ularni boshqarish uchun bir qator dasturiy vositalarlar ishlab chiqilgan.



2.3-rasm.Fraktal tasvirlar

Rastr-bu juda kichik yuzaga ega bulgan geometrik figuralar (piksellardan), masalan kvadratchalardan tuzilgan matritsa ekanligi yuqorida ko'rsatilgan edi.


Rastirli tasvirning har bir pikseli o'z rangiga ega bo'lishi mumkin. Turli ranglarga ega bulgan rastrlar to'plami tasvirni tashqil etadi. Tasvir ko'rsatilayotgan sirtida piksellarni joylashishiga nisbatan rastrlar turli tiplarga bo'linadi: kvadrat, turt burchak, doira, geksigonal va shu kabilar. Piksellar joylashishini tasvirlash uchun turli xil koordinata tizimlaridan foydalaniladi.

Bu tizimlarni hammasi uchun umumiy bo'lgan xossa, ularda piksel koordinatalarining diskret qiymatlar katoridan (butun son bo'lmasligi mumkin) tashqil topgandir. Ko'p hollarda butun sonlar koordinatasidan foydalaniladi. Bunda piksellarning boshlangich koordinatasi chap tomondagi yukori burchakdan boshlanadi.

Rastning geometrik xarakteristikalarini quyidagilardan iborat:

- ruxsat berilgan xatolik;
- o'lcham;
- piksel shakli.

Rastrda ruxsat berilgan xatolik o'zaro kushni (yonma-yon) joylashgan piksellar orasidagi masofa bilan xarakterlanadi (2.4-rasm).




2.4-rasm.Rastirli tasvirlar

Ruxsta berilgan xatolik bir birlik uzunlikdagi (kesmaga joylashgan) piksellar soni bilan o'lchanadi. Eng ko'p tarkalgan o'lchov birligi bo'lib, dpi (dots per inch) xizmat qiladi. U bir dyuym (2,54 sm) uzunlikdagi kesmani tashkil etuvchi (va vertical yoki gorizontol o'qda joylashgan) piksellar soni. Piksellar o'lchami bilan kadamning kattaligini tenglashtirib bo'lmaydi. Pikselning o'lchami kadamning kattaligiga teng. Undan kichik yoki katta bo'lishi mumkin.

Rastrning o'lchami odatda gorizontol va vertikal o'qlar bo'yicha joylashgan piksellar soni bilan aniklanadi. SHuni ta'kidlab aytish mumkinki, har ikki o'qlar uchun bir xil kadamli (ya'ni,  $\text{dpiX} = \text{dpiY}$ ) rastr Kompyuter grafikasi uchun juda kulay. Bu ayniksa grafik ob'ektlarni chikarish algoritmlari uchun kulay. Aks holda muammo paydo bo'ladi. Rastr piksellarining shakli tasvirni chikarish qurilmasining xususiyatlari bilan aniklanadi (2.5-rasm). Masalan, piksellar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- kvadrat (yoki to'g'ri turtburchak shaklidagi piksellar). Ular o'lchami bo'yicha rastr kadamiga teng (suyuq kristalli displeyda)
- doira shaklidagi piksellar. Ular o'lchami bo'yicha rastr kadamiga teng bo'lmasligi mumkin (printerlar).




2.5-rasm. Turli xil rastrlarda bir tasvirlarning o'zini ko'rsatishga doir misollar

Ranglar soni (rang chuqurligi) ham rastrning eng muxim xarakteristikalaridan biri. Ranglar soni fakat rastrli tasvir uchun emas. Balki har kanday tasvir uchun ham muxim xarakteristika xisoblanadi. Psixofiziologik tadqiqotlarni ko'rsatishicha, insonning ko'zi 350000 ranglarni bir-biridan ajratish imkoniyatiga ega. Tasvirlarni rang bo'yicha quyidagi guruxlarga ajratish mumkin:

Ikki rangli (binar) tasvirlar. Bu tasvirlarning har bir pikseli uchun Kompyuter xotirasida bir bit kerak. Ok-kora tasvirlar ikki rangli tasvirlar orasida eng ko'p uchraydi.

Nim rang tasvirlar. Bu tasvirlarni shakllantirishda kulrang yoki boshka ranglarning gradatsiyalaridan foydalaniladi. Odatda, tasvirddagi rang 256 gradatsiyadan iborat bo'lib, uning har bir pikseli uchun 1 bayt kerak. Rangli tasvirlar. Bu tasvirlarning har pikseli uchun eng kamida 2 bit kerak. Har bir pikselda rang chuqurligi 16 bit bulgan (65 536 rangli) tasvir High Color nomini, har bir pikselida 24 bit bulgan (16,7 mln. rangli) tasvir True Color nomini olgan. Kompyuterlarning grafik tizimlarida har bir piksel 32,44 va undan ko'p bit bulgan tasvirlardan ham foydalaniladi.



2.6-rasm.Ko'rish mumkin bo'lgan eng kichik o'lcham

Rastning ruxsat berilgan xatoligini baholash. Normal kurish kobilyatiga ega bulgan odamning ko'zi burchak o'lchamida 1 minutga yakin ob'ektlarni farqlashi mumkin. Agar ob'ektgacha bulgan masofa R uzunlikka teng bulsa, u holda bu o'lchamni (dP) yoy uzunligi sifatida quyidagicha baholash mumkin (2.6-rasm):


$$dP = \alpha \cdot R, (2.1)$$

bu yerda  $\alpha = 1,7453293 \cdot 10^{-2} / 60 = 2,90888 \cdot 10^{-4}$  (rad).

3.Tasvir shaklda taqdim etilgan malumotlarning turlari. Kompyuter yordamida tasvirlarga ishlov berish haqida gapirganda tasvirlarni to'rt guruhga ajratish maqsodga muvofiq:

1. Kul rang va rangli tasvirlar.
2. Ikk i xil va bir necha "rangli" tasvirlar.
3. Uzl iksiz egri va to'g'ri chiziqlar.
4. Nuq talar yoki ko'pburchaklar.

Bu turkumlash tasvirni ko'rib idrok qilish mexanizimi bilan emas, balki ularni taqdim etish va qayta ishlashga yondashish bilan bog'liq. Kulrang va rangli tasvirlar. Birinchi guruhga odatdagi televizor tasvirlari ko'rinishidagi tasvirlar kiradi (2.7-rasm).



2.7-rasm.Kulrang va rangli tasvirlar

Ular “reallikni” yetarlicha aniq aks etishini ta’minlaydi va butun sonli elementlardan iborat matritsa shaklida taqdim etiladi. Bu matritsaning o’lchami ko’p hollarda 512x512 va undan ham katta bo’lishi mumkin. SHuning uchun tasvirlarni Kompyuter xotirasida har doim ham oddiy matritsa shaklida saqlash maqsadga muvofiq bo’lavermaydi. Bu masala ma’lumotlar strukturasi mavzusida alohida qaraladi.

Rangli tasvir uch matritsa (qizil, yashil va ko’k ranglar uchun) yordamida, yoki har bir rang uchun ma’lum bitlarni ajratgan holda bir matritsa yordamida saqlanishi mumkin. Ma’lumki, yoritilganlik darajasining bir-biridan farqi 1 foyizdan kam bo’lsa, u holda buni odamning ko’zi odatda seza olmaydi. SHuning uchun rangli tasvirlarni saqlashda uni har bir pikseli-ning rangi uchun bir bayt ajratish yetarli. Ammo foydalanish mumkin bo’lgan natijalarga erishish uchun rangli tasvirning har bir pikselini xotiraga joylashtirishda bir bayt axborotni ishlatish yetarli. Bu holda ikki xil rangning



har biri uchun 3 bit va uchinchi rangni berish uchun 2 bit zarur. Matematik nuqtaiy nazardan, ayrim hollarda rangli tasvirni uch o'lchamli vektorlar matritsasi sifatida qarash qulay. Ikki xil va bir necha "rangli" tasvirlar. Kitobning sahifasidagi tasvir ikki xil rangli (oq- qora) tasvirga tipik misoldir (2.8-rasm). Bu kabi tasvirlarning har bir elementiga bir bit joy ajratilgan matritsa ko'rinishida saqlash mumkin. Bu guruhdagi tasvirlarni "karta" ko'rinishida ham saqlash mumkin.





2.8-rasm.Ikki xil qiymatli tasvirlar

CHunki bu tasvirlarda har bir rang bir-biridan yaxish ajralib turuvchi sohalardan iborat. Ana shuning uchun ham biz bir-necha "ranglarda" berilgan tasvirlar bilan ikki rangda berilgan tasvirlarni bir guruhga birlashtirdik, holbuki matritsaning har bir elementiga bir bit ajratish faqat ikki rangli tasvirlar uchungina yaxish.

Tasvirning har bir elementi uchun bir bitdan foydalanish bilan bog'liq muommolardan biri turli tipdagi Kompyuterlar va vizual axborotlarni akslantiruvchi qurilmalar uchun bitlarni baytlarga, baytlarni mashina so'zlariga birlash-tiruvchi standartni yo'qligidadir. Masalan, chapdan eng keyingi piksel baytdagi eng kichik, va eng katta ahamiyatga ega bo'lgan bit sifatida tasvir-lanishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, foydalanuvchilar har doim o'zlari foydalanayotgan qurilmalar uchun mos bo'lgan tasvirlash usulini tanlash haqida o'ylashlari kerak. SHuni takidlab o'tish zarurki, rangli

tasvirlar bilan birnecha rangda berilgan tasvirlar o'rtasidagi farq noaniqroq. Bu faqat tasvirlarni taqdim etish uchun foydalaniladigan usullarni qullashdagina ma'lum ma'noga ega.



Uzliksiz egri va to'g'ri chiziqlar. Bu guruhdagi tasvirlarga misol sifatida ma'lum bir sohaning konturini, yoki diagrammalarni ko'rsatish mumkin. Unga mos ma'lumotlar x va y koordinatalar orqali tasvirlangan nuqtalar ketma-ketligidan iborat.




2.9-rasm.Uzluksiz egri va to'g'ri chiziqlar

Ammo, bu usulda tasvirlashning samara-si juda past. Qo'shni nuqtalar koordinatalari qiymatlarining ayirmasidan ( $D_x$  va  $D_y$ ) foydalanishga asoslangan usulda tasvirlash haqida ham xuddi shuni aytish mumkin zanjirsimon kodlardan foydalanish esa biroz samaraliroqdir. Bu usuldan foydalanganda qo'shni ikki nuqtani tutashtiruvchi vektorlarga qandaydir chekli to'plamga tegishli bir simvol mos qo'iyiladi. 2.9-rasmda sakkiz yo'nalishdan foydalanuvchi zanjirsimon oddiy kod ko'rsatilgan, Agar nuqtalar bir-biriga yetarlicha yaqin joylashgan bo'lsa, u holda kvantlash natijasida paydo bo'lgan xatolikni qabul qilsa bo'ladi. Tasvirlashni bundanda samaraliroq usuli zanjirsimon differentsial kodni tadbiiq etishdan iborat bo'lib, u har bir nuqtani ketma-ket kelgan ikki kodni ayirmasi siqatida qaraydi. Bu holda uning qiymati quyidagicha bo'ladi; -3, -2, -1, 0, 1, 2, 3, 4. Ularning paydo ehtimoli bir emas.

Silliq egri chiziqni kodlashtirganda -1, 0 va 1 qiymatlari boshqalaridan ko'ra ko'p uchraydi, 4 bo'lsa juda kam uchraydi. SHuning uchun turli yo'nalishlarni tasvirlashda o'zgaruvchan o'zunlikdagi kodlarning biridan foydalanish mumkin. Zanjirsimon differentsial koddan foydalanishda o'zgaruvchan o'zundikdagi so'zlarni kodlashtirish variantlaridan birini quyidakeltiramiz.Nuqtalar yoki ko'pburchaklar. Bu guruhning elementlari alohida nuqtalarning to'plamidan iborat bo'lib, bir-biridan shunchalik uzoqda

joylashganki, ularni tasvirlash uchun zanjirsimon kodlardan foydalanib bo'lmaydi (2.10-rasm).



2.10-rasm. Nuqtalar yoki ko'pburchaklar

Buning o'rniga ularning  $x$  va  $y$  koordinatalaridan tashkil topgan matritsani qo'llash zarur. Unga mos akslantirish vositasi nuqtalarni to'g'ri chiziq yoki egri chiziqlar bilan birlashtirishga imkon beradi. To'rtinchi va uchinchi guruhlar o'rtasidagi farq xuddi oldingi guruhlar kabi noaniq. Bu faqat tasvirlarni saqlashda foydalaniladigan usullar uchun ma'noga ega. Bir-biridan uzoqda joylashgan nuqtalarni tasvirlash uchun ham zanjirsimon koddan foydalanish mumkin. Ammo bunday holda bir nuqtaga bir simvoldan ko'proq kod talab qilinadi. Bu ikki formadan qay birini tanlash nuqtalar orasidagi masofalar ehtimolini taqsimlanish xarakteriga tayanish kerak. Tasvirda yonma-yon turgan nuqtalar orasidagi eng katta masofa  $L$ , o'rtacha masofa esa  $l$  bo'lsin. Zanjirsimon kod yordamida o'zgaruvchan uzunlikdagi kod so'zi bilan kodlashda tasvirning har bir nuqtasiga taxminan  $2l$  bit, koordinatalarning orttirmasi  $\Delta x$  va  $\Delta y$  orqali kodlashda tasvirni har bir nuqtasi uchun  $2 \log_2 L$  bit sarflash kerak. Agar nuqtalar orasidagi masofa kichik bo'lsa, u holda  $L$  masofa  $l$  o'rtachaga nisbatan uncha katta bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, tasvirni koordinatalar ayirmasi bilan tasniflash samarali bo'ladi. Kompyuter grafikasining amaliy masalalarida xuddi mana shu tipdagi tasvirlardan boshqalariga nisbatan ko'p foydalaniladi. Vizivual akslantirish ikkinchi guruhga yoki hatto, birinchi guruhga ham kirishi mumkin, ammo uning ichki

tasvirlanishi to'rtinchi guruhga kiradi. Ko'pgina amaliy masalalarida quyidagi tasvirlash formalaridan foydalaniladi:

- Sirtlarni ko'pburchaklar bilan approksimatsiya qilish. Odatda ko'pburchaklarning qirralari uchburchaklardan tuzilgan. Tasvirni qurgandan so'ng u ko'pburchaklardan iborat bo'ladi.

- Sirtlarni egri chiziqli apporsimatsiyasi. Bu holda jismning sirtiga bir necha egri chiziqlar chiziladi. So'ng uzluksiz egri va to'g'ri chiziqlar (uchinchi guruh) tasviri sifatida qayta hosil qilinadigan proektsiyani olish uchun ularning tasnifidan foydalaniladi.


- Yuqori tartibli sirt qismlari bilan apporksimatsiya qilish. BU usul birinchi usulga o'xshash. Faqat bu usulda ob'ekt sirtini tashkil etuvchi elementlar sifatida yassi ko'pburchaklar emas, balki yuqori tartibli sirtning qismlaridan foydalaniladi. Hamma hollarda ob'ektning holati uncha kata bo'lmagan sondagi qanadydir nuqtalar bilan aniqlanadi. SHuning uchun ushbu guruhdagi tasvirlar Kompyuter grafikasi uchun juda muhim.

## **2.2. Tasvirlarni qayta ishlash bosqichlari va kompyuter grafikasidagi ifodasi**

Tasvirlarni qayta ishlash ko'plab sohasi xususiyatlarini o'zida birlashtirish tabiatiga ega bo'lgan fan yo'nalishidir. Avvalo tasvirlarni qayta ishlash turli fan tushunchalarini birlashtirdi. Tasvirli ob'ektni belgilari bilan raqamli signallarning qanday bog'liqligini bilish zarur. Bu erda rang-barang fizik jarayonlarni o'z ichiga olgan bo'lib, tasvirni yorug'ligini geometrik tarqalishidan tortib, toki radiometrik shakllantirishlarigacha borib taqaladi. Tasvirni hosil qiluvchi datchiklar yorug'lik energiyasini u yoki bu elektrik signallar orqali ifodalaydi. Bu signallar esa diskret sonlar orqali va axborot qiymatlarini kompyuterlarda raqamli shaklda qayta ishlandi. Tasvirlarga raqamli ishlov berish fizika, kompyuter bilimlari, informatika, matematika, optika, algoritmlash nazariyasi va h.k., kabi ko'plab soha amallarini ketma – ket amalga oshirish jarayonlaridan iborat (2.2.1 - rasm). Bu jarayonni

muxandislik nuqtaiy – nazaridan qaraydigan bo‘lsak, nazariy, optiko – elektrotexnik va dasturiy ta’minotni loyihalashdan tashkil topgan [31].

YUqorida aytib o‘tilganidek tasvirlarga raqamli ishlov berish natijalari boshqa fan yo‘nalishlarida keng foydalaniladi yoki turli fan yo‘nalishlari bilan kesishadi. Masalan: metrologiya fanini qismi o‘lchash masalasi, tovushli axborotni qayta ishlash masalasida, shaxsni tanib olish masalasi va boshqalar. Albatta bular sun’iy intellekt va Data Mining usullari orqali turli fan yo‘nalishlarini avtomatlashtirish masalalarini hal etiladi.



2.2.1- rasm. Tasvirlarga raqamli ishlov berish masalasining ierarxik tuzilmasi

Tasvirlarga raqamli ishlov berish natijalarining tadbqiqiy ko‘lami keng bo‘lib, unga quyidagilarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin:

**Fan va Fazo.** Dastlabki yillarda tasvirlarni qayta ishlash usullaridan faqatgina ilmiy maqsadlardagina foydalanilgan edi. Bu olimlar asosan fazoviy tadqiqotlar va harbiy sohalarda ishlovchi olimlar bo‘lishgan edi. Fazoviy tadqiqotlar bizga juda qo‘p tasvirlarni tadqiq qilish usullarini taqdim etdi. Bu usullar bizning quyosh tizimini tadqiq qilish bo‘yicha tadqiqotlarimizning muvaffaqiyatli bo‘lishiga juda katta hissa qo‘shdi. Yillar davomida NASA agentligida juda ko‘p tasvirlarni qayta ishlashga to‘g‘ri kelgan. Reynjer fazo kemasi oy sirtining minglab tasvirlarini erga uzatdi. Syorveyer 7 fazo kemasi esa o‘zining oyga qo‘nish nuqtasidan turib 21038 ta televizion tasvirlarni erga uzatgan. 1964-yili uchirilgan Mariner fazo kemasi esa Marsning 22 ta raqamli tasvirlarini uzatdi. Viking loyihasi esa 1975-yili boshlandi va bu loyiha bo‘yicha Mars sayyorasining 100 mingdan ziyod tasvirlari olindi. Voyager loyihasi bo‘yicha 1977-yili ikki fazoviy kema uchirildi va ular Saturn, Uran, Neptun va YUjupiter sayyoralarining juda ko‘p tasvirlarini uzatdilar.



Mana shu fazoviy loyihalar ma‘lumotlar oqimlari sifatida fazoviy tasvirlarni erga uzatdilar. Ma‘lumotlarni uzatish ko‘pincha doimiy va quyosh uchqunlari orqali uzilib qolar va natijada tasvirlar buzilar edi. Tasvirlarni qayta tiklash va filtrlash usullari shoaqinlarni yo‘qotar va tasvirlarning buzilgan qismlarini tiklar edi. Ushbu usullardan ayrimlaridan avvallari hech qachon foydalanilmagan va hozirda ulardan elektron mikroskopiya, seysmografiya va tibbiy tashhis kabi juda ko‘p sohalarda foydalaniladi.

**Kino sanoati.** Garchi Golivudda kompyuterlardan umumiy effektlarni hosil qilish uchun doimo foydalanib kelinayotgan bo‘lsada, kino sanoatida kompyuterlardan foydalanish so‘nggi bir necha yillar davomida nihoyatda ortib ketdi. Xattoki so‘nggi vaqtlarda to‘laligicha kompyuterda ishlangan kino asarlari hamda multfilmlar ham yaratildi. Kompyuterlar bir tasvirni ikkinchisiga

qorishtiradi, tavirlar freymidan keraksiz bo'lgan ob'ektlarni olib tashlaydi va freymlarning qismlaridan yangi freymlarni hosil qiladi.

*Gladiator* filmidagi jang sahnalari, Kolizey maydonining tiklanishi va unda o'tirgan tomoshabinlar barchasi kompyuter orqali hosil qilingan. Bu filmning muvaffaqiyatida undagi kompyuter effektlarining roli nihoyatda kattadir. Kino sanoatida kichik sondagi odamlar guruhidan katta sondagi olomoni kompyuter yordamida hosil qilish anchagina keng qo'llaniladigan usuldir. Bunday usul *tasvirlar kompozitsiyasi* nomi bilan mashhurdir. YA'ni bunda tasvirlarga aslida ularda bo'lmagan ob'ektlar kiritiladi. Kompyuter effektlari tufayli katta muvaffaqiyat qozongan filmlardan yana biri bu *Matritsa*, *Uzuklar qiroli* seriyasiga kiruvchi filmlardir. Bu filmlarda ko'p qo'llanilgan usullardan biri bu *morfing* (Morphing) usulidir. Bunda bir tasvir boshqa tasvirga aylantiriladi. Morfing so'zi metamorfoza so'zidan hosil qilingan. Masalan, Terminator 2 filmida T-1000 razil poliqtotishma bir lahzada bir necha shakllarga kira oladi. Morfing texnologiyasidan reklama roliklarida ham keng foydalaniladi. Masalan, yurib ketayotgan mashinani yo'lbars ko'rinishiga aylantirish, snikers reklamasidagi robotlarni odam ko'rinishiga o'tkazish kabilar. Kino asarlarida yana qahramonlar qiyofalarini o'zgartirish, ularni yoshartirish yoki qaritish, yuzlariga ajinlar tushirish kabilardan ham keng foydalaniladi. Bunday usul *tasvirlarni qiyshaytirish* (Image warping) deb ataladi. Bu usuldan dastlab fazoviy tasvirlardagi buzilgan joylarni qayta tiklash maqsadida foydalanilgan edi. Hozirda u yo'qolganlarni qidirishda ham keng qo'llanilmoqda. Bunda yo'qolgan odamlarning bir necha yillar avval olingan tasvirlari asosida hozirdagi qiyofalari tiklanadi (2.2.2-rasm).





2.2.2 – rasm. Bolaning haqiqiy vaqtidagi va bir necha yillardan keyingi tasvirlari

**Qog‘ozsiz ish yuritish.** Hozirda barcha ofis ishlari qog‘ozni iloji boricha kamroq ishlatish tomon bormoqda. Mukammal darajadagi qog‘ozsiz ishlash muhitida barcha hujjatlar elektron ko‘rinishda saqlanadi va kompyuter yoki boshqa biror ekran yordamida namoyish qilinadi. Bu narsa hujjatlar, tasvirlarni qayta ishlash (HTQI) texnologiyasi yordamida amalga oshiriladi. Garcha biz hozirda bunday mukammal holatda uzoqda bo‘lsakda, uning ayrim elementlari hozirda ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bunga bo‘lgan ehtiyojni yana shu narsada ko‘rish mumkinki, AQSHda hujjat ishlari uchun bir yilda 1 trillion varaqdan ortiq

qog'oz ishlatiladi. Mana shuning o'ziyoq qog'ozdan tejab foydalanishning muhimligini ko'rsatib beradi.

HTQI tizimlari hujjatlarni oddiy elektron ko'rinishidagi matnlar sifatida saqlashi mumkin. Bu esa kerakli hujjatlarni bir zumda qidirib topish imkoniyatini beradi. Buning uchun skaner qilingan hujjatlar *belgilarni tanib olish* texnologiyasi yordamida oddiy matnlarga aylantiriladi. Hozirdayoq juda ko'p tarmoqlarda hujjatlar elektron ko'rinishda saqlanmoqda. Masalan, banklar mijozlarning hisoblari, bank operatsiyalari to'g'risidagi hujjatlarni, tibbiy muassasalar bemorlarning kasallik varaqalarini elektron ko'rinishiga o'tkazmoqdalar.

Tibbiyotni sanoat sohasi tasvirlarni qayta ishlash natijalaridan uzoq ishlardan beri foydalanib kelmoqda. Bunga misol sifatida Rentgen tasvirlari va ultura tovushlar ikki o'lchovli fazoda ifodalangan tasvirlarini olish texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Ma'lumki, kompyuter tomografiyasi 1980 yillardan buyon keng foydalanib kelinmoqda. Meditsina xodimlari kompyuter tomografiyasidan insonni skeletini kerakli qismlarini, bosh miya suyagini va boshqa qismlarini to'g'ri – aniq tashhis qo'yishda keng foydalanishadi.

Bunga o'xshash tasvirlarni qayta ishlash yo'nalishini natijalarini xalq xo'jaligida ko'p tadbqiqiy misollarini keltirish mumkin.

### **2.3. Raqamli tasvirlarni kompyuterga kiritish vositalari hamda rangli tasvirni kulrang tasvirga o'tkazish algoritmi**

Tasvirlarga ishlov berish va tahlil etish inson faoliyatining tasvirlarga aloqador bo'lgan bir muncha sohalarda qo'llaniladi. Ko'pchilik mutaxassis va olimlarning fikriga ko'ra tasvirlarga ishlov berish usullari rivojlanishi fan va texnikaning yorqin kelajakka ega bo'lgan yangi yo'nalishlarini vujudga kelishiga olib keldi.

Tasvirlarga ishlov berishda asosan tasvirlarga qayta ishlov berish yoki tasvirlarga raqamli ishlov berish nomlari bilan yuritiladi. Bu sohani insonning ko'rish tizimini bilmay turib, uni o'rganib bo'lmaydi. Inson ko'rish tizimidan

andoza olinishi tasvirlarga raqamli ishlov berish sohasini taraqqiy etishiga ulkan hissa qo'shmoqda.


SHu o'rinda tasvirlarga qayta ishlov berishning zamonaviy tizimlari haqida qisqacha ma'lumot keltirib o'tamiz. Tasvirlarni olish va qayta ishlov berish tizimlari to'rtta komponentadan tashkil topgan [31]:

- Tasvirlarni olish tizimi. Buni sodda shakli zaryadli bog'liqlik bilan ishlovchi pribor, planshet skanerlari yoki videomagnitofon.
- Anologli videosignalni shaklidagi tasvirni raqamli formatda saqlovchi freym – grabber qurilmasi.
- Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonini ta'minlovchi ishchi stansiya yoki shaxsiy kompyuter.
- Tasvirlarga qayta ishlov berish va tahlil qiluvchi dasturiy ta'minot.

Quyidagi rasmda tasvirli axborotlarni kompyuterga kiritish qurilmalaridan ayrimlari keltirilgan:



a



b



v

2.3.1 – rasm. a) CCD kamera, b) Web kamera va v) maishiy skaner

Keyingi o'n yil ichida tasvirlarga ishlov berishning qo'llanilish sohasi sezilarli darajada kengaydi [27]. Tasvirlarga ishlov berishda avvalo tasvirning rang xususiyatlarini o'rganib chiqish zarur bo'ladi.

